

**MAKTABLARDA MUSIQA CHOLG'U ASBOBLARINI  
O'RGGATISH YO'LLARI**

**Способы обучения игре на музыкальных инструментах  
Teaching musical instruments in schools tracks**

*Ismailova Sevinch Musiqa ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Yulyaxshiyev Sherali Guliston Davlat Pedagogika instituti  
o'qituvchi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada barcha maktablarda musiqa cholg'u asboblarini tanishtirish, nomlanishini o'rgatish, musiqaning tarbiyaga bo'lgan ta'siri, musiqa cholg'u asboblarida ijro etib berish, ularni musiqa cholg'u asboblariga qiziqtira bilish so'ngra musiqa cholg'u asboblarini o'rgatish metodlari.

**Kalit so'zlar:** Musiqa, ta'lim, tarbiya, o'rghanish, izlanish, harakat, qobiliyat, qiziqish, aqliy, jismoniy, ruhiy rivojlanishi, ijodiy tomonlama yondashuvi .

**Аннотация:** В данной статье мы рассмотрим введение музыкальных инструментов во всех школах, обучение их названию, влияние музыки на воспитание, игра на музыкальных инструментах, умение заинтересовать их музыкальными инструментами, а затем методы обучения игре на музыкальных инструментах.

**Ключевые слова:** музыка, образование, воспитание, обучение, поиск, движение, способности, любопытство, умственное, физическое, развитие, творческий подход.

**Abstract:** This article will introduce musical instruments in all schools, teach naming, influence of music on upbringing, play on musical instruments, be able to interest them in musical instruments and then teach musical instruments methods.

**Key words:** Music, education, learning, exploration, action, ability, interest, mental, physical, mental development, creative factual approach.

**KIRISH**

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Musiqa madaniyati fani o‘quvchilarga eng kerakli fan hisoblanganligi tufayli hamma e’tibor qaratilyabdi. Musiqa fani o‘quvchilarning tarbiyasi, madaniyat ila muomala qilishi, odobi, xulq- atvori va madaniy saviyясини yuksaltirishga, ularning qobiliyatini, iste’dodini rivojlantirishda yordam beradi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev barcha maktablarga e’tibor qaratib, o‘zgarishlar kiritmoqda. Maktablarda musiqa cholg‘u asboblarini o‘rganishi uchun ko‘plab shart-sharoitlar yaratib kelmoqda. Maktablarda o‘quvchilarga musiqa bo‘yicha bilim olishi uchun tajribali, oliv ma’lumotli kadrlar ishga olinmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2017-yil 6-apreldagi “Umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187 – sonli qarori bilan Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta’lim standarti tasdiqlandi. Ushbu qarorda umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishning maqsadi – o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini rivojlantirish, milliy g‘urur, vatanparvarlik ruhida tarbiya qilish, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini shakllantirish, o‘zbek hamda jahon musiqa cholg‘u asboblarini tushuntirish va uni o‘rgatish hamda musiqa sadolaridan zavqlanishini o‘rgatishidan iborat, deb belgilab qo‘yilgandir, shuningdek yurtimizda hozirgi zamonda musiqa fani oldida turgan muhim muammolaridan biri bu ta’lim - tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish va uning qobiliyatini, iste’dodini rivojlantirish hisoblanadi. Musiqa madaniyati fani bolalar uchun ta’lim- tarbiyasi, ma’naviy-madaniy yuksaklikka erishadigan muhim omillardan biri bo‘lib, insoniy his – tuyg‘ulariga ta’sir qilishi bilan ularning ma’naviy–axloqiy hislatlarni tarbiyalayalashda muhim hisolanadi.

### **MUHOKAMA**

Hozirgi kunda respublikamiz ta’lim tizimida “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning eng asosiy sifat bosqichida belgilangan vazialarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha chuqr o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu tufayli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida 2019– yil 19- martdagи “Yoshlar bilan ishslashni samarali tashkil etishda

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida“ o'tkazilganligi tufayli mamlakatimizda maktablarda musiqa madaniyati faniga ko'proq e'tibor berilmoqda va chunki musiqa madaniyati hamma soha, kasblar uchun kerak hisoblanadi. Musiqa madaniyati fanini o'qitishning oldiga esa o'quv fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma, tajriba va malakalarni amaliyotida qo'llash orqali o'quvchilarda kuzatuvchanikni, musiqa xotirasini, obrazli tasavvur qilishlikni, tashabbuskorlikni, idrokni, tafakkurni rivojlanishi, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish asosida fikr doirasini kengaytirish, etika va estetikasini rivojlantirish, o'zbek va jahon kompozitorlari, bastakorlari asarlarini, kuylarini, qo'shiqlarini hamda turli janrlarni bir-biridan farqlay olishi, tayanch va umumiyligi kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirish kabi vazifalar qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi maktablarda musiqa cholg'u asboblarini o'rgatishga, avvalambor ularni qiziqtirish va ularning his-tuyg'ularini yanada boyitish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktabda bolalar musiqa cholg'u asboblariga: fortepiano, rubob, dutor va boshqa cholg'u asboblari kiradi. Ushbu musiqa cholg'u asboblari yordamida bolalarning eshitish qobiliyatini, iste'dodini, his-tuyg'ularini rivojlantirishda hamda shakllantirishda, ularni idrok eta olishida yordam beradi .

Musiqa cholg'u asboblarini o'rgatishning oson yo'lidan biri bu o'zi bilgan qo'shiqlarni ijro etib, so'ngra u qo'shiqnini mazmun-mohiyatini tushuntirish, ushbu qo'shiq bilan savol -javoblar yordamida idrokini, tafakkurini, tevarak atrofdagi narsalarni tasavvurida shakllantirishga yordam beradi so'ngra ushbu qo'shiqnini biror-bir musiqa cholg'u asbobida o'rgatish natijasida bolalarda qiziqish va izlanish rivojlanib hamda shakllanib boradi .

Maktablarda hatto musiqa cholg'u asboblarini ijro etgan holatda repertuarlar ijro etsa ham bo'ladi lekin bunday darajaga yetishish uchun avvalambor ularda musiqa cholg'u asboblarini ijro etgan holatda kuylashga, eshitishga, o'rganishga qiziqtirish turli xil ko'rgazmalardan, metodlardan, materiallardan kompetensiyalardan foydalanish maqsadga muvoqfiq bo'ladi. Maktablarda bolalarni turli hil konsertlarga, tadbirlarga qatnashtirish lozim, chunki o'shanda bolalarda

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

musiqaga bo‘lgan his –tuyg‘ulari, qiziqish uyg‘onadi va o‘rganishga talabi ortadi, izlanadi.

Musiqa cholg‘u asboblarining mutaxassislari bilan maktab o‘quvchilari bilan qiziqarli ochiq uchrashuvlar, mahoratli darslar o‘tkazishlari natijasida cholg‘u asboblari haqida tafakkurlari, fikrlari, idrokleri rivojlanishi, turli hil his tuyg‘ularga ega bo‘lishi hamda o‘rganishga qiziqishi ortib boraveradi. 2022- 2023- o‘quv yildidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatini orttirish, shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo’llab – quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida:

Mazkur qarorga 1-ilovasiga ro‘yhatda kiritilgan milliy musiqa cholg‘ularida kamida 1 tasida kuy ijro etish mahorati o‘rgatiladi hamda ta’lim to‘g‘risidagi hujjatiga ya’ni shahodatnomasiga tegishli qayd kiritiladi. Musiqa madaniyati fani uchun 2023- 2024-o‘quv yildidan boshlab esa kamida 3 tasidan kuy ijro etish mahoratiga ega bo‘lish musiqa fani o‘qituvchilari uchun majburiydir. Bizning o‘ylashimizcha, musiqa madaniyati fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari doirasida hamda to‘garaklar soatida “Hayotimning mazmunini biri cholg‘udir “ shiori ostida cholg‘u ijrochiligi hamda qo‘sish kuylash dars mashg‘ulotlari o‘tilishi natijasida bolalarda o‘sish yanada rivojlanadi va shakllanib boraveradi deb o‘ylaymiz. .

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mening o‘ylashim bo‘yicha maktablarda musiqa cholg‘u asboblarini o‘rgatish yo‘llari orqali bolalarning ma’naviy, ruhiy, jismoniy, his tuyg‘ulari, idrokni, tafakkurni rivojlanishi, badiiy va musiqiy didini rivojlantirish asosida fikr doirasini kengaytirish, etika va estetikasini rivojlantirish, bolalar uchun ta’lim- tarbiyasi, ma’naviy - madaniy yuksaklikka erishadigan muhim omillardan biri bo‘lib hisoblangan holatdi insoniy his – tuyg‘ulariga ta’sir qilishi bilan ularning ma’naviy – axloqiy hislatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Musiqa madaniyat fani bo‘yicha cholg‘u asboblarini o‘rganish natijasida ularning eshitish qobiliyatları shakllanib rivojlanish natijasida o‘sib boradi va hamda

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

iste'dodlari rivojlanishi ortib boradi. Maktablarda bolalarga musiqa madaniyat fani o'tilishi kerak deb hisoblayman.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. "Umumiy o'rta va o'rta maxsus , kasb – hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187 – sonli qarori . (Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta'lim standarti) . 2017-yil 6-aprel
2. Ma'lumotlardan foydalanilgan [www.president.uz](http://www.president.uz) .
3. B. Mustafayev "Musiqa o'qitish metodikasi".
4. D.T.Nomozova "Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash" T.2019
5. G. S H A R I P O V A, S H. Y A K U B O V A MAKTABGACHA TA'LIM MUAS SASALARIDA MUSIQA O 'QITISH METODIKASI
6. S.A.Mahmudova "Musiqa madaniyatni shakllantirishda pedagogik tizimning ilmiy-nazariy asoslari" O quy-uslubiy qo'llanma. Farg'ona 2023 yil.
7. F.Mashrabboyeva. "Cholg'u ijrochilagini o'rganishda an'anaviy va zamonaviy metodlar", Journal. "Cholg'u ijrochiligidagi musiqiy ta'lim uzviyligini ta'minlash" 2022 yil